IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

MATN YAXLITLIGINI TA’MINLOVCHI VOSITALAR

Ibragimova Madinabonu Saidumar qizi

FarDU 1-kurs magistranti

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20098368

Annotatsiya: Ushbu maqola matn yaxlitligini ta’minlovchi lingvistik vositalarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda matnning ichki bog‘liqligi va mazmuniy birligini yaratishda leksik, grammatik va stilistik vositalarning o‘rni atroflicha ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot matnning kogeziya va koherensiya xususiyatlarini shakllantiruvchi asosiy mexanizmlarni aniqlashga qaratilgan. Natijalar matnning samarali aloqasini ta’minlashda ushbu vositalarning muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so'zlar: Matn, Yaxlitlik, Kogeziya, Koherensiya, Lingvistik Vositalar, Diskurs, Bog'lanish, Tilshunoslik

Abstract: This article is devoted to the analysis of linguistic means ensuring text integrity. It thoroughly examines the role of lexical, grammatical, and stylistic devices in creating the internal connectivity and semantic unity of a text. The research aims to identify the main mechanisms that form the cohesive and coherent properties of a text. The findings demonstrate the significance of these devices in ensuring effective textual communication.

Keywords: Text, Cohesion, Coherence, Linguistic Devices, Text Integrity, Discourse, Connectivity, Stylistics

Аннотация: Данная статья посвящена анализу лингвистических средств, обеспечивающих целостность текста. В ней подробно рассматривается роль лексических, грамматических и стилистических средств в создании внутренней связности и смыслового единства текста. Исследование направлено на выявление основных механизмов, формирующих когезивные и когерентные свойства текста. Результаты демонстрируют значимость этих средств для обеспечения эффективной текстовой коммуникации.

Ключевые слова: Текст, Когезия, Когерентность, Лингвистические Средства, Целостность Текста, Дискурс, Связность, Стилистика

Matn insoniyat tafakkurining moddiy tashuvchisi bo‘lib, bilim va axborot almashinuvining asosiy vositasidir. U shunchaki gaplar yig‘indisi emas, balki ma’lum bir g‘oya va mantiqiy izchillik bilan bog‘langan, yaxlit semantik tuzilmani tashkil etuvchi lingvistik birlikdir. Har qanday matnning samaradorligi, uning o‘quvchi yoki tinglovchiga yetkazmoqchi bo‘lgan mazmunni to‘liq va aniq yetkazib berishi bevosita uning yaxlitligi bilan bog‘liq. Matn yaxlitligi – bu matnning ichki birligi, uning qismlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik va umumiy ma’no butunligini ta’minlovchi xususiyatdir. Bu xususiyat matnning asosiy belgilovchi jihatlaridan biri bo‘lib, uning kommunikativ funksiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish garovidir.

Matn yaxlitligi muammosi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi, chunki u nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Matnning yaxlitligi buzilganda, uning mazmuni tushunarsiz bo‘lib qoladi, kommunikativ jarayon izdan chiqadi va axborotni noto‘g‘ri talqin qilish xavfi yuzaga keladi. Shu sababli, matn yaxlitligini ta’minlovchi vositalarni chuqur o‘rganish, ularning funksional imkoniyatlarini aniqlash va tasniflash zamonaviy lingvistika oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu vositalar leksik, grammatik, mantiqiy-semantik va

kompozitsion darajalarda namoyon bo‘lib, matnning har bir qismini bir-biriga bog‘lab, yagona butunlikni hosil qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – o‘zbek tilidagi matn yaxlitligini ta’minlovchi lingvistik vositalarni kompleks tahlil qilish, ularning turlarini, funksiyalarini va matn tuzilishidagi rolini ilmiy asosda yoritishdan iborat. Ishda matn yaxlitligining nazariy asoslari, uni ta’minlovchi leksik va grammatik bog‘lanishlar, shuningdek, matnning mantiqiy-semantik va kompozitsion yaxlitligi mexanizmlari atroflicha ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari matnshunoslik, stilistika va nutq madaniyati sohalarida yangi bilimlar berish bilan birga, yozma va og‘zaki nutqning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Matnning kommunikativ samaradorligi uning ichki tuzilishi va umumiy ma’no butunligi bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu sohadagi tadqiqotlar matnning nafaqat alohida gaplar yig‘indisi emas, balki ma’lum bir g‘oya atrofida birlashgan, mantiqiy izchillikka ega bo‘lgan murakkab lingvistik birlik ekanligini tasdiqlaydi. Adabiyotlarda matnning yaxlitligi, bog‘liqligi (kogeziya) va izchilligi (kogerentlik) kabi tushunchalar turli jihatlardan o‘rganilgan bo‘lib, ular matnning funksional va semantik butunligini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida qaraladi.

Matn tushunchasiga oid adabiyotlarda uning ikki asosiy talqini ajratib ko‘rsatiladi: immanent va reprezentativ. Immanent talqin matnning ichki tuzilishiga, reprezentativ talqin esa tashqi voqelikni aks ettirish funksiyasiga e’tibor qaratadi. Tilshunos I.R. Galperin matnni leksik, grammatik va mantiqiy bog‘lanishlar orqali birlashgan yozma xabar sifatida ta’riflaydi, bu esa matnning yaxlitligini ta’minlovchi asosiy vositalarga ishora qiladi. Bu ta’rif matnning shunchaki gaplar ketma-ketligi emas, balki ma’lum bir tizimga ega bo‘lgan, o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan murakkab tuzilma ekanligini ko‘rsatadi.

Matnning semantik yadrosi yoki mavzusi uning yaxlitligini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Bu yadro matnning barcha qismlarini bir-biriga bog‘lab, yagona ma’no butunligini hosil qiladi. Semantik yaxlitlik matnning markazlashgan bayonot ekanligini, asosiy g‘oyani ifodalashini, avtonomligini, mantiqiy bog‘langan gaplardan tashkil topganligini, sarlavha berish mumkinligini hamda aniq boshlanish va tugallanishga ega ekanligini anglatadi. Mazmuniy yaxlitlik matnning kommunikativ maqsadini amalga oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, chunki faqat yaxlit matn axborotni to‘liq va aniq yetkaza oladi.

Matnlar o‘zining shakli va kommunikativ maqsadiga ko‘ra dialogik va monologik turlarga bo‘linadi . Monologik (tavsifiy) matnlar voqea-hodisalar, predmetlar yoki shaxslarni tasvirlashga qaratilgan bo‘lib, ilmiy, publitsistik va badiiy uslublarga xosdir. Dialogik matnlar esa savol-javob shaklidagi o‘zaro muloqotni o‘z ichiga oladi, ko‘proq so‘zlashuv va badiiy uslublarga xosdir. Matn tipologiyasi, shuningdek, kommunikatsiya kanaliga ko‘ra og‘zaki va yozma shakllarni ham farqlaydi Har bir matn turining o‘ziga xos yaxlitlikni ta’minlovchi vositalari mavjud bo‘lib, ularni o‘rganish matnshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Masalan, dialogik matnlarda replikalar o‘rtasidagi bog‘liqlik, intonatsiya va kontekst muhim rol o‘ynasa, monologik matnlarda leksik takrorlar, grammatik aloqalar va mantiqiy izchillik ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Matn komponentlari o‘zaro **kontakt** va **distant aloqa**ga kirishadi. Oradan uch-to‘rt kun vaqt o‘tdi. Bolaga telefonimni bergan edim. Qo‘ng‘iroq qilmadi. Bir kuni yana uyushmaga kelsam, xuddi o‘sha kitob do‘koni oldida turibdi (Sh.Xolmirzayev). Bu matnda birinchi va ikkinchi, ikkinchi va uchinchi, uchinchi va to‘rtinchi gaplar orasidagi aloqani **«kontakt aloqa»**, birinchi va uchinchi, birinchi va to‘rtinchi gaplar orasidagi aloqani **«distant aloqa»** deymiz.

d=(a+b)+(b+c)+(c+d) k=(a+c)+(a+d) Bunday aloqani quyidagi leksik-grammatik vositalar yuzaga chiqaradi:

1. Kesimlik shakllari yordamida bog'lanish. Fe'l-kesimlarning bir xil zamonda shakllanganligi matn butunligini ta'minlaydigan vositalardan hisoblanadi. *Dadamning ketmon urishini tomosha qilishni **yaxshi ko'raman**. Dastasidan ko'tarishi bilan kattakon ketmoni oftobda **yaraqlab ketadi.** U ketmonini shu qadar zarb bilan uradiki, yer **silkinib ketganday bo'ladi**. Tag'in har gal ketmon tashlaganda «hah-hah» **deb qo'yadi**. Xuddi birovga zarda qilgandek! Bilaman, hozir dadam **terlay boshlaydi**. Avval bo'yni **terlaydi, qip-qizarib, yaltirab ketadi.** Key in oq ko'ylagining gardaniga yopishgan joyi **ho'l bo'ladi**. Undan keyin yelkalari... Chap yelkasidagi chuqurcha o'radek q**orayib qoladi*** (O'. Hoshimov)

2. Olmoshlar yordamida birikish**.** Bunda matnning birinchi komponenti tarkibidagi ot, sifat, son turkumidagi so'zning keyingi komponentlarda olmosh so'zlari o'rnida qo'llash mumkin.

*Hozir ham **shu** bolani sevintirmoqchi edim. Oyim Muzaffarga qilgan sarpolami ko'rsatib, bolaning quvonishini tomosha qilsam, **o'zim**ning ham ko'nglim yorisharmikin, degandim... Qayoqdan bilay! Qoiimga qiyiqcha ilashib chiqishini tush ko'ribmanmi? Axir **bu** - Kimsan akamga atab tikkan gullarim-ku! Axir **bu** qiyiqchalar Shomurod akaga emas, Kimsan akamga nasib qilishi kerak edi-ku! **0 'sha kuni** qiyomat-qoyim bo iib ketgan vokzalda xayrlasha turib: «Kutasan-a, **menga** qiyiqcha tikib qo'yasan-a», degan edi-ku! Kimsan akamga bérgan va'damni nahot unutsam! **Ana o'sha** qiyiqchalar! Yarim sandiq! **Hammas**ining chetiga «K», «R» degan harf bosilgan. Atirgulning rasmi solingan. Faqat **bu** gullaming egasi yo'q endi. Egasi boshqa...*

3. Takrorlar yordamida birikish. Birinchi gapda qo'llangan ayrim affikslar, so'z, so'z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qo'llanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin. Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta'kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Nutqning ta'sirchanligi ortadi. «Leksik takrorlar, olmoshlar va sinonimlar yordamida hosil qilinadigan aloqa zanjirli aloqa, bir xil grammatik formalar bilan boshlanuvchi yoki tugallanuvchi komponentlar yig'indisidan tashkil topadigan aloqa parallel aloqa deyiladi.[1]-*Janoblar, siz bu yerga turli mamlakatlardan kelgansiz. Siz turli millat, turli xalqlarning vakillarisiz. Bu yerda hech mamlakat, hech bir xalqning vakili bo'lmagan yolg'iz **men.** **Men** hamma xalqlarning, hamma mamlakatlarning vakiliman. **Men** she'riyatman. **Men** butun olamga teng nur sochuvchi oftobman. **Men** hamma o'lkalarga teng yog'uvchi yomg'irman. **Men** dunyoning hamma erida teng gullaguvchi daraxtman (R.Hamzatov)*Takrorning bir necha ko'rinishlari bor, ular ham matn tashakkulida uslubiy vazifa bajaradi: Alliteratsiya, assonans, anafora, epifora kabilar. Alliteratsiya deb undosh tovushlarning uslubiy maqsadlarda takrorlanishiga aytiladi. Assonans esa unli tovushlarning takrorlanishidir. Anafora deganda so'z yoki so'z birikmalarining she'riy misralar boshida takrorlanishi tushuniladi. Epiforada esa misralar oxiridagi so'z yoki qo'shimchalarning takrorlanishi nazarda tutiladi. Bularning bari matnning kompozitsion butunligi uchun xizmat qiladi.

4. Xiazmatik konstruktsiyalar yordamida birikish. Xiazm asosan, ikkita gapdan tashkil topgan matn ko'rinishlarida bo'ladi. Xiazm «X» harfi shaklida namoyon bo'luvchi uslubiy vosita sanaladi. Ikkinchi gap birinchi gap komponentlarining teskari tarzda joylashtiriladi. Bunda yozuvchining asosiy maqsadi ikkinchi gapda aks etiladi. Birinchi gap ikkinchi gapdan anglashiladigan ma'noni bo'rttirib ifodalashga yordam beradi.*Dushmanimning do'sti – mening dushmanim, Dushmanimning dushmani – mening do'stim. (Maqol)* Ushbu misolda do'st va

[1] **Toshaliyev I.** Hozirgi o'zbek tili. Sintaksis. Sintaktik va sintagmatik qayta bo'linish.

Partsellyatsiya. –Toshkent: Zar qalam, 2004, 88-b.

dushman so‘zlari o‘zaro o‘rin almashib quyidagi ko‘rinishdagi xiazmatik konstruksiyani hosil qilgan.

do‘st dushman

do‘st dushman 

Nutqda xiazm usulida qurilgan gaplar o‘zining ohangdorligi bilan ajralib turadi, o‘quvchi yoki tinglovchini hushyor tortishga, fikrni uning ruhi, ongiga tez singdirishga yordam beradi.

5. Zamon va makon ifodalovchi birliklar yordamida ham matnni shakllantirish va uning komponentlarini bog‘lash mumkin. Badiiy asardagi voqea-hodisalar muayyan vaqt asosida ro‘yobga chiqadi. Faqat badiiy asardagi vaqt tushunchasi real hayotdagi vaqt muntazamligidan farq qiladi. «Vaqt ma’noli leksemalar matn qismlarini distant (masofasiz, bilvosita) va kontakt (masofali, bevosita) bog‘lash uchun xizmat qiladi. Ayrim temporal so‘zlar leksik-grammatik bog‘lovchi vazifasini bajarib, matndagi xronologik ketma-ketlik, izchillikni aks ettirib turadi» [2] *.Ertalab-chi, oyi, yomg‘ir yog‘di. Qattiq yomg‘ir yog‘di. Siz bahor yomg‘irini yaxshi ko‘rardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang, oftob charaqlab yotibdi…*(O‘.Hoshimov). Ushbu matnning shakllanishida vaqt ma’noli birliklarning alohida xizmati bor. Birinchi gapda ***ertalab*** leksemasi yordamida sutkaning shu qismida sodir bo‘lgan tabiat hodisasi haqidagi informatsiya ifodalanyapti. Keyingi gaplarda ifodalangan hodisalar ham ayni vaqt birligida ketma-ketlikda ro‘yobga chiqqan. Ya’ni: ertalab → yomg‘ir yog‘di → qattiq yog‘di → oftob chiqdi → charaqlab ketdi. Makonni bildiradigan leksemalar ham matnni shakllantiruvchi vosita bo‘la oladi. Odatda yozuvchilar voqea sodir bo‘layotgan makonni batafsil tasvirlashga harakat qiladilar. Makon ma’noli leksema keltirildimi, albatta uning tavsifi ham beriladi. Shu tarzda matn yuzaga keladi. Gaplar o‘zaro kontakt va distant aloqaga kirishadi.

Matn yaxlitligini ta’minlovchi vositalar leksik, grammatik, mantiqiy-semantik va kompozitsion darajalarda namoyon bo‘ladi. Leksik vositalar matnning so‘z boyligidan foydalanish orqali bog‘liqlikni ta’minlaydi, masalan, sinonimlar, takrorlar, tematik guruhlar va anaforik bog‘lanishlar. Grammatik vositalar esa gaplarning sintaktik tuzilishi va ularning o‘zaro aloqasi orqali yaxlitlikni yaratadi, jumladan, olmoshlar, bog‘lovchilar, zamon va mayl shakllarining muvofiqligi. Mantiqiy-semantik yaxlitlik matnning mazmuniy izchilligi, g‘oyaviy butunligi va fikrlar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari orqali ta’minlanadi. Kompozitsion yaxlitlik esa matnning tuzilishi, uning kirish, asosiy qism va xulosa kabi tarkibiy elementlarining o‘zaro joylashuvi va mantiqiy ketma-ketligini o‘z ichiga oladi.

Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlar tahlili matn yaxlitligi muammosining ko‘p qirrali ekanligini va uning turli lingvistik darajalarda o‘rganilishini ko‘rsatadi. Har bir darajadagi vositalar matnning umumiy butunligiga o‘ziga xos hissa qo‘shadi. Zamonaviy tilshunoslikda matn yaxlitligini ta’minlovchi vositalarni kompleks o‘rganish, ularning o‘zbek tilidagi xususiyatlarini aniqlash va tasniflash nazariy bilimlarni boyitish bilan birga, nutq madaniyatini oshirish va samarali kommunikatsiyani ta’minlashga xizmat qiluvchi dolzarb vazifadir. Tadqiyotlar matn yaxlitligining til birliklarining tizimli va uyg‘unlashgan faoliyati natijasi ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois, matn yaxlitligini ta’minlovchi vositalarni chuqur tahlil qilish, ularning funksional imkoniyatlarini aniqlash va samarali foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

[2] Mamaziyaev O.X. O’zbek poetik nutqida xiazm va gradatsiya. Filol.fan.nomz...dis.avtref.-Farg’ona, 2004.

Xulosa

Ushbu tadqiqot matn yaxlitligini ta’minlovchi leksik, grammatik, mantiqiy-semantik va kompozitsion vositalarning o‘zbek tilidagi funksional imkoniyatlarini kompleks tahlil qildi. Aniqlangan mexanizmlar matnning ichki birligini, mazmuniy izchilligini va kommunikativ samaradorligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bu vositalarni chuqur anglash va ulardan ongli ravishda foydalanish yozma hamda og‘zaki nutq madaniyatini sezilarli darajada oshirishga, axborotni aniq va to‘liq yetkazishga xizmat qiladi. Kelajakda matn yaxlitligini ta’minlovchi vositalarni turli janrlar va uslublarda qiyosiy o‘rganish, shuningdek, ularni o‘qitish metodikasini takomillashtirish tilshunoslik va pedagogika uchun muhim istiqbollarni ochadi.Demak, matn tarkibidagi gaplar faqat struktural jihatdan emas, balki mazmunan ham bir-birini taqazo

qilishi kerak ekan. Matn butunligida mazmuniy yaqinlik qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, mazmun izchilligi ham shunchalik muhim.Shu sababli matnuchun kogeziya va kogerentlik muhim snaladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamaziyaev O.X. O’zbek poetik nutqida xiazm va gradatsiya. Filol.fan.nomz...dis.avtref.-Farg’ona, 2004.

2. Hakimova M. Ko’rsatilgan asar. 135-b.

3. Toshaliyev I. Hozirgi o’zbek tili. Sintaksis. Sintaktik va sintagmatik qayta bo’linish.

Partsellyatsiya. –Toshkent: Zar qalam, 2004, 88-b.

4. Ahmedova N.Sh. O’zbek tilida murojaat birliklarining semantikkonnotativ tadqiqi. Filol.fan.nomz...dis. -Toshkent, 2008.

5. Hotamov N**.** Adabiyot nazariyasidan qo’llanma.-Toshkent:O’qituvchi, 1978, 101-b.

6. Mamajonov A. Ko’rsatilgan asar, 15-b.